

JINS SEMALI SO‘Z BIRIKMALARINING LISONIY SINTAKTIK QOLIP

LINGUISTIC-SYNTACTIC PATTERNS OF GENDER-SEMANTIC WORD COMBINATIONS.

ЛИНГВОСИНТАКСИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ СЛОВСОЧЕТАНИЙ С ГЕНДЕРНОЙ СЕМАНТИКОЙ.

*Yusupova Nilufar Ilxam qizi**Urganch innovatsion universiteti magistranti**Юсупова Нилуфар Ильхам кызы**магистрантка Ургенчского**инновационного университета**Yusupova Nilufar Ilxam qizi**master's student of Urgench**Innovative University*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida jins semali so‘z birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplari (LSQ) tadqiq etiladi. Tilga semiotik yondashuv asosida lisoniy invariant birliklar va ularning nutqdagi variantlari o‘rtasidagi munosabat yoritiladi. Ayniqsa, jins ma’nosini ifodalovchi so‘z birikmalarini shakllantiruvchi sintaktik modellarning o‘rni va ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda shaxs otlari bilan kasb-hunar, ijtimoiy maqom yoki boshqa belgilarni ifodalovchi birliklarning birikishi natijasida yuzaga keladigan jins semali konstruktsiyalar tahlil qilinadi. Bunday birikmalar barqaror lisoniy sintaktik qoliplar asosida shakllanishi va nutqda turli variantlarda voqelanishi asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur qoliplarning til o‘rganish jarayonida hamda kompyuter lingvistikasida tutgan o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: lisoniy sintaktik qolip, LSQ, jins semasi, so‘z birikmasi, o‘zbek tili, invariant va variant, sintaktik model, nutqiy hosila.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвосинтаксические модели (ЛСМ) словосочетаний с гендерной семантикой в узбекском языке. На основе семиотического подхода к языку анализируется различие между инвариантными языковыми единицами и их вариативными проявлениями в речи. Особое внимание уделяется синтаксическим моделям, формирующим словосочетания с гендерным значением. Исследуются конструкции, в которых существительные, обозначающие лицо, сочетаются с лексическими единицами, выражающими профессию, социальный статус и другие признаки, что приводит к формированию гендерно маркированных сочетаний. Доказывается, что такие

словосочетания строятся на основе устойчивых лингвосинтаксических моделей, выступающих как инвариант в системе языка и реализующихся в виде разнообразных вариантов в речи. Также подчеркивается значимость данных моделей в изучении языков и разработке лингвистического обеспечения компьютерных систем.

Ключевые слова: лингвосинтаксическая модель, ЛСМ, гендерная семантика, словосочетание, узбекский язык, инвариант и вариант, синтаксическая модель, речевая реализация

Annotation (Abstract). This article examines the linguistic-syntactic patterns (LSQ) of gender-semantic word combinations in the Uzbek language. Based on a semiotic approach to language, the study highlights the distinction between invariant linguistic units and their variable realizations in speech. Special attention is given to the role of syntactic models in forming word combinations that express gender-related meanings. The paper analyzes constructions in which personal nouns are combined with lexical units denoting profession, social status, or other characteristics, resulting in gender-marked expressions. It is argued that such combinations are formed according to stable linguistic-syntactic patterns, which function as invariant models in the language system while producing diverse variants in actual speech. The study also emphasizes the importance of these patterns in language learning and computational linguistics.

Keywords: linguistic-syntactic pattern, LSQ, gender semantics, word combination, Uzbek language, invariant and variant, syntactic model, speech realization

Kirish. XX asr boshlaridan buyon butun dunyo tilshunosligida tilga semiotik nuqtayi nazardan yondashuv asosiy o‘rin egalladi. Ferdinand de Sossyur g‘oyalari asosida til belgilar sistemasi sifatida qaraldi va til birliklarining sistemaviy tabiatini ochib berishga asosiy e‘tibor berildi. Buning natijasida til sistemasi bilan uning funksiyalashuvi, funksiyalanishi jarayonida til sistemasidagi invariant birliklarning turli-tuman variantlanishi va o‘zgarmas birliklarning o‘zgaruvchanlik kasb etishi namoyon bo‘ldi. Tilshunosning bosh vazifasi bevosita kuzatishda xilma-xil ko‘rinishlarda (variantlarda) namoyon bo‘luvchi lisoniy birliklar zamirida yashiringan, o‘zgarmas (invariant) birliklarni aniqlash va bu birliklarning til sistemasidagi o‘rnini belgilashdan iborat bo‘ldi. Bu esa tilshunoslikka o‘tkinchi, vaqtincha hodisalardan barqaror, doimiy mohiyatlarni anglash imkoniyatini berdi. Natijada tilning har bir satxlarida shu sath birliklarining modellari va bu modellarning nutq jarayonidagi ko‘rinishlari aniqlanadi¹.

¹“ Hozirgi o‘zbek adabiy tili”fanidan o‘quv –uslubiy Majmua ; Samarqand -2013

Ma'lum bir til jamiyat bilan birga hamnafas ekan, uning mukammal borishi, shu jamiyatning barqaror yashab qolishi va rivojlanishiga o'z tasirini o'tkazmay qolmaydi. Tilning o'ziga xos qonuniyatlari va majburiyatlari yillar mobaynida turli omillar ta'kid natijasida o'zgarishlarga uchraydi va bu o'zgarishlar shu til doirasida turli lisoniy qoliplarni shakllantiradi. Lisoniy qoliplar barcha jamiyat a'zolari lisoniy ongida bir-biriga o'xshash holda bir xil ko'rinishda shakllanib, lisoniy qolip sifatida yashaydi. Ushbu lisoniy qoliplar nutq jarayonida biri ikkinchisini takrorlamagan holda voqelanadi. Demak, lisoniy qolip ma'lum bir tilning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini ochib beruvchi qonuniyatlarning inson miyasining til xotirasida to'planib, shakllanib borishidir. Bu qonuniyatlar barcha uchun umumiy bo'lsa, uning moddiylikda aks etishi nutqiy hosilani vujudga keltiradi va xususiylik sifatiga ega bo'ladi. Lisoniy yoki lingvistik qoliplar inson kundalik hayotida oddiy turmush tarzida u qadar sezilarli darajada ahamiyat kasb etmaydi, chunki har qanday inson tug'ilgandan boshlab, o'zi so'zlashayotgan til bilan birga yashaydi va shu tilning barcha xususiyatlari jamiyat a'zolari tomonidan uning ongiga singdirib boriladi. Qachonki, o'zga tillarni o'rganish zaruriyati tug'ilgandagina, lisoniy qoliplar muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Har qanday til o'zining qonuniyatlariga ega bo'ladi. Uning tarkibiy qismlari, ichki tuzilishi va ma'lum bir qoliplarni til xotirasida shakllantirish orqali o'rganadi va o'zlashtiradi².

Bu fikrlarga qo'shimcha tariqasida Oqila Abdullayevaning -Tillar so'z yasalishi, gap qurilishi va boshqa jihatlar bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek tilida so'zlashuvchi kishi rus yoki ingliz tilini o'rganish jarayonida tilning barcha sathidagi lisoniy qoliplarni o'zlashtirib ongida shakllantiradi va mavjud qoliplar asosida shu tilda o'z fikrini ifodalaydi. Ko'rindiki, lisoniy qoliplar til o'rganishda shu bilan birga tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida qo'llanilayotgan kompyuter dasturlarning lingvistik ta'minotini yaratishda muhim rol o'ynaydi, - deya o'z qarashlarini bildirib o'tganlar³. Boshqa tillardek o'zbek tili ham o'ziga xos va boshqalarga o'xshamaydigan alohida lisoniy sintaktik qoliplarga ega. O'tgan asr mobaynida tilni lisoniy sintaktik qoliplar asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etmagan bo'lsa, hozirgi davrga kelib ushbu yo'nalishdagi amaliy va nazariy ishlarga dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shuni aytish lozimki, tilning keng va chuqur qamrovga ega murakkab sathi sintaktik sath deb ataladi. Ushbu sath til birliklaridan gap va so'z birikmasini o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu birliklarni shakllantirish kuchiga ega lisoniy qoliplar – lisoniy sintaktik qoliplar (LSQ) deyiladi. Bu borada R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida shunday nazariy qarashlar bildirilgan: Fonetika, leksika va morfologiyada bo'lgani kabi sintaksisda ham lisoniy

² https://tsuull.uz/sites/default/files/oak_o.abdullayeva_s.xudayarova.pdf

³ https://tsuull.uz/sites/default/files/oak_Abdullayeva,Xudayarova,2023:79

va nutqiy jihat farqlanadi. Ma'lumki, lisoniy hodisa bevosita kuzatishda berilmaganlik (moddiylikdan xolilik), miqdoran cheklilik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik va majburiylik belgisiga ega, u bevosita kuzatishda berilganlik, miqdoriy cheklanmaganlik, betakrorlik, individuallik, ixtiyoriylik sifatiga ega bo'lgan nutqiy hodisaga qarama-qarshi turadi. Nutqiy sintaktik birlik sifatida nutqda qo'llaniladigan, sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan, o'qish, yozish, aytish, eshitish mumkin bo'lgan so'z birikmasi va gap tushuniladi. Lisoniy sintaktik birlik esa, so'z birikmasi va gap hosil qilish qolipi. Lisoniy sathga tegishli bo'lganligi uchun ularni lisoniy sintaktik qolip (qisqacha LSQ) deb ataymiz. LSQ g'isht qolipiga o'xshaydi. Inson ongida ham so'zlash, nutqni shakllantirish maqsadida leksemalarni so'z birikmasi shakliga keltirish, gap hosil qilish qolipi mavjud. Ular LSQ, model, konstruksiya, qurilma deb nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. Masalan, kitobni o'qimoq kabi cheksiz birikmani chiqaradigan (ot tushum kelishigi+fel) so'z birikmasi qolipi qanday nomlanmasin, uning mohiyatiga tasir qilmaydi ⁴.

Asosiy qism

O'zbek tilida muloqot qiluvchi nutq egalari o'zlarining so'zlashuv jarayonida SBiga ehtiyoj ortsa LSQning 16 ta turidan foydalanishga majburdir. Chunki LSQlar tuzishga hamda o'zgartirishga til "qonunchiligi" yo'l qo'ymaydi. Fikrimizning yaqqol dalili sifatida LSQning majburiylik xususiyatlariga egaligini, nutqiy hosilaning esa til egalari tomomidan ixtiyoriy tanlanish jihatlariga egaligini aytishimiz mumkin.

Lisoniy sintaktik qolip nutqiy hosilalardagi umumiylik belgisini aks ettiradi. Masalan, daftarni bermoq, daraxtni ekmoq, mehmonxonani supurmoq birikmalaridagi daftarni, daraxtni, mehmonxonani tobe qismlari quyidagi umumiy belgilarga ega: ot turkumiga mansublik; tushum kelishigi bilan shakllanganlik; tobe a'zolik. Nutqiy hosila esa yakkalik xususiyatiga ega. Demak, biz yuqorida lisoniy sintaktik qolip va nutqiy hosilaning bir-biridan farqli bo'lgan xususiyatlarini ko'rdik. Demak, tilda fonema va leksemaning tayyorlik xususiyatini ko'rdik, hech shubhasiz so'z birikmasi ham tayyor lisoniy hodisami yoki nutqiy birlikmi degan munozaraning bo'lishi shubhasiz. So'z birikmasi ham so'z singari nominativ vazifa bajaradi, ya'ni atash, nomlashga xizmat qiladi. So'z birikmasi semantik jihatdan, hech shubhasiz, so'zga teng hodisa deya olamiz, ammo uning leksik birligidan farqli tomoni borki, alohida o'rganilishni taqozo etib kelmoqda.

Tilshunoslik olamiga nazar tashlasak tilda fonemalar barcha til egalarining lisonida invariantlilik xususiyati va bir xil tasnifda saqlangan holda mujassamlashganligini ko'ramiz. Misol uchun [o] fonemasini olaylik. Uning semantik xususiyati ma'no farqlashga xizmat qilsa, belgining ifodalanganligi tashqi tomonini vujudga keltiradi. Tilimizda mavjud oltita [i], [e], [a], [u], [o'], [o] fonemalari

⁴ Sayfullayeva, Mengliyev va b., 2009: 115 b

unliligiga ko‘ra bir paradigmani tashkil qilsa, ma’no farqlashi va o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra ongda alohida yashovchanlik tabiati bilan muhimdir. Xuddi shu kabi leksemalar ham tilda tayyor birlik sifatida nomema va sememalar birlashishidan tashkil topadi.

Tilimiz imkoniyatlari naqadar keng va nafiski, ayrim o‘rinlarda so‘z birikmasi va leksema o‘zaro almashinib qo‘llash mumkinligini H.Ne‘matovning “o‘zbek tilidagi ayg‘ir so‘zi bilan notanish bo‘lgan kishi ayg‘ir leksemasi o‘rnida bemalol erkak ot so‘z birikmasini ishlataveradi⁵”, deb osongina misollar orqali bir qancha dalillarga tayangan holda isbotlaganligida ko‘rishimiz mumkin. Haqiqatdan ham bu leksema bilan so‘z birikmasi atash, nomlash xususiyatiga ko‘ra teng qiymatlidir. Bu kabi birliklarni nutqimizda juda ko‘p uchratishimiz mumkin.

leksema

muallima

amma

tog'a

jiyan

amaki

so'z birikmasi

o'qituvchi ayol

dadaning opasi / singli

onaning ukasi/akasi

amma/xola/farzandi

otaning akasi/ukasi

Shunday ekan, yuzlab misollar orqali so‘z birikmalarining leksemalarga atash vazifasi jihatidan teng qiymatligini dalil sifatida keltirish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, leksema va so‘z birikmasi orasidagi asosiy farq atash/nomlash vazifasida emas, balki shu vazifani qaysi yo‘l bilan, qaysi usul va qaysi shakl bilan ifoda etishdadir.

Bugungi kunda ham tilimizda so‘z birikmasining erkin birikish xususiyati o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bahsli nazariyalardan biri sanaladi. Buning uchun dastlab tilda mavjud bo‘lgan erkin sintaktik aloqaga aniqlik kiritish lozim topiladi. Erkin aloqa deganda so‘zlarning muvaqqat, faqat nutq ehtiyoji va zaruriy atash vazifasini bajarish uchun tobe-hokimlik munosabatlariga kirishi tushuniladi⁶.

Shaxsni atash yoki muayyan jihatiga ko‘ra tavsiflash ehtiyoji “shaxs” ma’noli leksik birliklar bilan cheklanmay, tilning boshqa imkoniyatlarini yuzaga

⁵ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.

⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.

chiqaradi. Shulardan biri suvchi yigit, sotuvchi erkak, oshpaz qiz, qozoq chol, lo‘li qiz, mahalladosh yigit, qo‘shni ayol, tikuvchi xola (v.h.) **kabi so‘z birikmalari orqali namoyon bo‘ladi. Tabiiyki, bu o‘zbek tilida shaxs tavsifining so‘z birikmasi bilan ifodalanish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.**⁷ Shaxsning u yoki bu xususiyatini ifodalash ehtiyoji tug‘ilganda hosil bo‘luvchi birikmada shaxs tavsifi bilan bir qatorda ma‘lum bir jinsga oid sema oydinlashadi. Bunday erkin sintaktik aloqa natijasida jins semali so‘z birikmalari yuzaga keladi. **Jins semali so‘z birikmalarining tobe va hokim a‘zosi shaxs otlaridan iborat bo‘ladi.** O‘zbek tilida tobe a‘zosi shaxsning kasb-hunar otidan, hokim a‘zolari esa jins semasini ifodalovchi shaxs otlaridan tuzilgan so‘z birikmalariga e‘tibor qilaylik:

- 1) *shifokor ayol* [shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot + shaxsni jins jihatidan tavsiflovchi ot];
- 2) *cho‘pon yigit* [shaxsni hunariga ko‘ra tavsiflovchi ot + shaxsni jinsiga ko‘ra tavsiflovchi ot];
- 3) *rus xotin* [shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot + shaxsni jins jihatidan tavsiflovchi ot];
- 4) *qo‘shni xotin* [shaxsni yaqinligiga ko‘ra tavsiflovchi ot + shaxsni jinsiga ko‘ra tavsiflovchi ot];
- 5) *tikuvchi opa* [shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot + shaxsni qarindoshligiga ko‘ra tavsiflovchi ot];
- 6) *o‘quvchi qiz* [shaxsni ijtimoiy maqomiga ko‘ra tavsiflovchi ot + shaxsni jins jihatidan tavsiflovchi ot].

Yuqorida qiyoslanayotgan har bir so‘z birikmasi ham shaxsni atash, nomlash vazifasiga ko‘ra umumiy o‘xshash bo‘lib, so‘z birikmalarining shaxsni tavsiflovchi ma‘noviy tipini shakllantiradi, ammo bu birliklarni ichki guruhlaydigan bo‘lsak, ayol yoki erkak jinsidagi shaxsni turli jihatidan tavsiflaydigan so‘z birikmalari paradigmasini tashkil etadi. Biroq birikmalar tarkibidagi kengayuvchi so‘zlar bir-biridan lug‘aviy-manoviy xususiyatlari asosida farqlanadi. Chunki, shifokor ayol birikmasida kengayuvchi ayol leksemasi hokim bo‘lak mavqeyida ayol jinsiga mansub shaxsni kasb jihatidan tavsiflovchi ot reallashganligidan dalolat beradi, uning kengaytiruvchisi esa ayolning qaysi guruhga mansubligini konkretlashtirib, reallashtirib bermoqda. Keyingi birikmadagi yigit leksemasi kengayuvchi bo‘lib, hokim bo‘lak mavqeyini erkak jinsidagi shaxsni hunar jihatidan tavsiflovchi ot egallaganligini ko‘rsatadi. Demak, mazkur so‘z birikmalarida kengaytiruvchi so‘zlar (shifokor va cho‘pon) tobe bo‘lak mavqeyida ayol va erkak jinsidagi shaxsni kasb jihatidan va hunariga ko‘ra tavsiflovchi otlar voqelashganligini ko‘rsatish bilan birga,

⁷ M.Xojiyeva., O‘zbek tili so‘z birikmalarida shaxs tavsifi. –Buxoro-2023

birikish imkoniyatlarining ikki ko‘rinishi reallashganligini bildiradi. Ayni ko‘rinishlar birikuvning o‘ziga xos turi mavjudligidan darak beradi.

Bundan kelib chiqadiki, bevosita kuzatishda berilgan muayyan so‘z birikmasi va [T~H]=SB umumlisoniy qolipi orasida ularni bog‘lab, tutashtirib turgan bosqichlarda nutqiy hosilaning tobe va hokim bo‘laklari sintaktik qiymatini aks ettiruvchi lisoniy qoliplar aynan umumiylik-xususiylik dialektik mohiyatiga ega bo‘lgan [tur-jins] munosabati asosida joylashadi. Binobarin, millionlab jins semali shaxs tavsifi berilgan so‘z birikmalari va [T~H]=SB umumlisoniy qolipi orasida mazkur nutqiy hosilalarni voqelantiruvchi qanday lisoniy qoliplar borligini aniqlash zaruriyati tug‘iladi. Bu esa so‘z birikmalari nutqda muayyan lisoniy-sintaktik qolip hosilalari ekanligini, demak, so‘z birikmalari bu jihatdan nutqiy birliklar hisoblanishini tasdiqlaydi. Biroq so‘z birikmasiga nutq birligi sifatida berilgan izoh uning tashqi tomoni asosida baholashdan iborat bo‘lib, uning substansial tilshunoslik jihatdan zid xulosani aks ettiradi. Demak, so‘z birikmalarining ichki tomonini o‘rganish asosida ularning lisoniy mohiyati ochilishi mumkin. Shuning uchun bu muhim nazariy masalani yechish erkak yoki ayol shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining tobe-hokimlik munosabatiga xos lisoniy xususiyatlarni tahlil qilish vazifasini belgilaydi. Barchaga ayonki, lisoniy qolip “til birliklarining o‘zaro birikish yo‘li, usuli va uning mahsulidir⁸”. Shu bilan birga, bizning ongimizda, ya’ni lisonda so‘zlash, nutqni shakllantirish uchun xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi leksemalarni so‘z birikmalari tarzida bog‘lash, leksema yoki so‘z birikmalariga gap sifatida shakllantirish qoliplari mavjud. Mana shu so‘z birikmasi va gaplarni hosil qilish qoliplari lisoniy-sintaktik qoliplaridir. Tilshunoslikda lisoniy-sintaktik qoliplarni modellar, konstruksiyalar deb atash an’anaga aylangan.

Lisoniy qolipga e’tibor qaratsak, qurilishiga ko‘ra tenglamaga o‘xshab ketadi va u, albatta, ikki qismdan iborat: tenglik (=) belgisidan chap tomon va bu belgidan o‘ng tomon⁹. Shaxsning u yoki bu xususiyatini tafsiflashda jins semaasining reallashishini bir qancha misollar orqali isbotlashimiz mumkin. Shunday ekan, fikrimizni dalillash maqsadida yuqorida tahlilga tortilgan olti xil ko‘rinishdagi shaxs tavsifli so‘z birikmalarini olaylik.

Shifokor ayol	Ayol jinsidagi shaxsning kasbi ifodalangan
Cho‘pon yigit	Erkak jinsidagi shaxsning hunari ifodalangan
Rus xotin	Ayol jinsidagi shaxsning millati ifodalangan
Qo‘shni ayol	Ayol jinsidagi shaxsning yaqinlik munosabati oydinlashgan
O‘quvchi qiz	Ayol jinsidagi shaxsning ijtimoiy maqomi yoritilgan

⁸ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутк. – Т.: Ўқитувчи, 1993. - 32 б.

⁹ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.

Demak, bu soʻz birikmalarida tobe-hokimlik birikuvini yuzaga chiqarayotgan ayol va erkak jinsidagi shaxsni kasb-hunari, yoshi, yaqinlik munosabati, millati va ijtimoiy maqomiga koʻra tavsiflovchi ot leksemalari olti xil birikish usuli (tarzi)ni shakllantiradi. Ayol yoki erkak jinsidagi shaxsning u yoki bu xususiyatini tavsiflashda soʻz birikmalari otlardan tuzilgan boʻladi va bunday soʻz birikmalarida birikish usulini umumlashtirib ifodalash mumkin. Bu bogʻlanishlar orqali quyida koʻrsatib oʻtilgan birikish qonuniyati va nutqiy hosilalari maydonga keladi.

Nutqiy hosila

shifokor ayol

qoʻshni ayol

rus xotin

choʻpon yigit

tikuvchi opa

oʻquvchi qiz

Birikish usuli

$[O_k \sim O_j]$

$[O_{va} \sim O_j]$

$[O_{mil} \sim O_j]$,

$[O_{qar} \sim O_j]$

$[O_h \sim O_j]$,

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, $[O_k \sim O_j]$ birikish usuli tobe boʻlak mavqeyida shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi ot leksemalari, yaʼni $[O_k]$ voqelashganligi hamda hokim boʻlak mavqeyi esa jinsni tavsiflovchi ot leksemalar egallaganligini kuzatamiz, yaʼni $[O_j]$ egallaganligini bildiradi. Oʻz navbatida, $[O_y]$ va $[O_j]$ qismlari orasidagi sintaktik aloqa usuli $[O_{ya} \sim boʻlak \text{ mavqeyida yaqinlik munosabatidagi shaxsni tavsiflovchi ot leksemalari, yaʼni } [O_{ya}] \text{ va jins semasini ifodalovchi } [O_j] \text{ qismidan tashkil topganligini anglatadi. } [O_{mil} \sim O_j] \text{ qolipidagi birikish usuli tobe boʻlak mavqeyida shaxsni millatiga koʻra tavsiflovchi ot leksemalari, yaʼni } [O_{mil}] \text{ voqelashganligi hamda hokim boʻlak mavqeyini ayol jinsiga mansub shaxsni tavsiflovchi ot leksemalar egallaganligini kuzatamiz, yaʼni } [O_j] \text{ egallaganligini koʻrsatadi. yaʼni } [O_m] \text{ va } [O_h] \text{ qismi egallaganligini anglatadi. Bu birliklar oʻzaro munosabatga kirishib nutqda kasb - hunar egalarining aynan qaysi soha vakili ekanligi tavsiflash bilan birga jins semasining reallashganini konkretlashga xizmat qiladi.}$

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, bu birikish usullari tobe-hokimlik munosabati ot leksemalarining maʼnoviy, shakliy (morfoloqik) va joylashuviga xos sintaktik, birikuvchanlik (valentlik) imkoniyatlaridan faqat maʼnoviy hamda joylashuvga xos birikish omillari asosida yuzaga chiqqanligini yaqqol ifodalaydi. Negaki, ot leksemalariga xos maʼnoviy birikuvchanlik tobe va hokim boʻlakdagi lugʻaviy birliklarning mazmunan oʻzaro mosligini taʼminlaydi. Joylashuv asosidagi sintaktik birikuvchanlik oldingi otning keyingiga tobeligini, keyingi otning oldingi otga

hokimligini belgilaydi. Demak, $[O_y \sim O_j]$, $[O_k \sim O_j]$, $[O_{mil} \sim O_j]$, $[O_h \sim O_j]$, $[O_{qar} \sim O_j]$ birikuv usullari shaxs otlarining birikuvchanlik imkoniyatlariga xos ma'noviy, joylashuv omillari asosida reallashuvchi tobe-hokim munosabatini hamda uning lisoniy-sintaktik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

$[O_k \sim O_j]$, $[O_h \sim O_j]$, $[O_{mil} \sim O_j]$, $[O_{yaq} \sim O_j]$, $[O_{qar} \sim O_j]$ qismlari o'zaro tobelanayotgan shaxsning kasb –hunar, millat, yaqinlik va qarindoshlik jihatdan tavsiflangan otlarining birikuv usullari sifatida qolipning chap tomonida joylashadi. Ayni choqda, lisoniy sintaktik qolip chap va o'ng tomonlardan iborat tenglama hisoblanar ekan, tenglikdan o'ng tomonda nima joylashishini aniqlash lozim. Bu qolip ta'rifidan ma'lum bo'ladi. H.Nematov, R.Rasulovlarning fikricha, qolipning birinchi, ya'ni chap qismida o'zaro birikayotgan til birliklari, ikkinchi, ya'ni o'ng qismida esa shu birikishning nutqiy mahsulining mohiyati ko'rsatiladi¹⁰. Shunga muvofiq, shaxsning kasb-hunar jihatidan tavsiflovchi otlarining o'zaro birikish usuli natijasi o'laroq shaxsni kasbiga ko'ra tavsiflovchi so'z birikmalari hosil bo'ladi. Tilshunos olimlarning shaxs nomlari LMTsida shaxsni kasbiga ko'ra tavsiflovchi leksemalar sirasiga shaxsni hunar jihatidan nomlovchi leksemalar kiritilgan, shunga tayangan holda biz ham ma'lumotni umumiyashtirgan holda so'z birikmalarining bu turini shaxsni kasbiga ko'ra tavsiflovchi so'z birikmalari deb nomlashni ma'qul topdik.

Yuqorida ifodalangan jins semasi ifodalangan shaxs tavsifli birliklarlar, aytib o'tganimizdek, ikki tomonning yaxlitligidan tashkil topgan. Ko'rib turganimizdek lisoniy sintaktik qolipimizning o'ng va chap tomonlari mavjud bo'lib, chap tomonda birikish usuli bo'lsa, o'ng tomondan birikish mahsuli o'rin olgan. E'tibor berib qarasak, lisoniy-sintaktik qolipning o'ng tomonida birikish mahsuli sifatida “[shaxsni kasb-hunariga, millatiga, yaqinlik munosabati, qarindoshlik va ijtimoiy maqomiga ko'ra tavsiflovchi] SB” joylashuvini talab etadi. Natijada, nutqiy mahsulning mohiyati quyidagi 6 xil qolipni lisoniy tenglama kabi to'liq yuzaga keltiradi:

1. $[O_k \sim O_j] = [\text{shaxsni kasbiga ko'ra tavsiflovchi jins semali}] \text{SB.}$

2. $[O_h \sim O_j] = [\text{shaxsni hunariga ko'ra tavsiflovchi jins semali}] \text{SB.}$

¹⁰ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари.–Т.: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.


3. $[O_{\text{yaq}} \sim O_j] = [\text{shaxsni yaqinligiga ko'ra tavsiflovchi jins semali}] \text{ SB.}$

4. $[O_m \sim O_j] = [\text{shaxsni millatiga ko'ra tavsiflovchi}] \text{ SB.}$

5. $[O_{\text{qar}} \sim O_j] = [\text{shaxsni qon-qarindoshligiga ko'ra tavsiflovchi}] \text{ SB.}$

6. Bu yerda o'quvchi qizning birikishi va nutqiy hosilasini qo'shish kerak .

Bu besh bog'lanish jins semali so'z birikmasini yuzaga chiqaruvchi oraliq qolip sanaladi. Ushbu qoliplar shaxs egasining kasbini, hunarini, millatini, yaqinligini, va qarindoshligini tavsiflovchi so'z birikmalari hamda shaxs ifodalovchi so'z birikmalarini hosil qilishiga ko'ra xususiy shakllar sanaladi. Bu xususiy ko'rinishlarining o'zaro o'xshash belgilari mavjud bo'lib, har beshala ko'rinish ham shaxsni ifodalashga xizmat qiladi. Shunday ekan, beshala ko'rinishdagi "shaxs tavsifi nomlari" LMTsiga tegishliligi asosida umumlashtirish, shuningdek, bu qoliplar mahsulida muayyan kasb va hunar egasining xususiyatlarini tavsiflash, xarakterlash mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu imkoniyat umumiylik-xususiylik aloqadorligi asosida kelib chiqadi va xususiy shakllarni umumiy shaklga, xususiy ma'nolarni umumiy ma'noga birlashtiradi:



Xulosa o'rnida til ijtimoiy hodisa bo'lib, nutqimizda tovush, so'z, so'z birikmasi sifatida reallashadi, chunonchi, so'z birikmalari nutqiy jarayonda ma'lum bir sintaktik qolipning reallashishidan hosil bo'ladi. So'z birikmasining o'ziga yondosh bo'lgan hodisalar (so'z va gap)ga nisbatan o'xshash va farqli tomonlari nazariy asoslangan. Tilshunosligimizda so'z birikmasining lisoniy sintaktik qurilishi, atash vazifasiga ko'ra so'zga, qurilishiga ko'ra gapga o'xshashligi va tenglashishiga asoslanib uni murakkab tuzilma ekanligini ko'rib o'tdik. So'z birikmasida oraliq qoliplar, ularning birikishi va nutqiy hosilalari turli xil misollar orqali daliliy faktlangan. Shunday ekan, ishimizda so'z birikmasi uchun umumiy qolipni belgilash qiyinroq masala ekanligiga alohida to'xtalib o'tildi.

Nutqiy voqelikda shaxsning u yoki bu xususiyatlari tavsiflangan umumiy izohlovchi-izohlanmish sintaktik ma'no munosabati ifodalangan so'z birikmalari $[O_{sh} \sim O_{sh}] = [\text{shaxsni tavsiflovchi}] SB$ umumiy qolipi asosida yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, izohlovchi ham, izohlanmish ham shaxs otlaridan tuzilgan so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishi $[O_{sh} \sim O_{sh}] = [\text{shaxsni tavsiflovchi}] SB$ qolipi mohiyatida mujassamlashgan.

Bevosita kuzatishda berilgan ayol yoki erkak jinsiga mansub shaxsning kasbiga, hunariga, millatiga, yaqinlik munosabati va qarindoshligiga ko'ra tavsiflovchi so'z birikmalari $[O_{sh} \sim O_{sh}] = [\text{shaxsni tavsiflovchi}] SB$ umumiy qurilish qolipining nutqiy hosilalari bo'lib, umumiy qolipga $[O_k \sim O_j] = SB$, $[O_h \sim O_j] = SB$, $[O_{mil} \sim O_j] = SB$, $[O_{yaq} \sim O_j] = SB$, $[O_{qar} \sim O_j] = SB$ va shu kabi o'nlab xususiy qoliplar orqali bog'lanadi. Demak, sanab o'tilgan xususiy qoliplari o'zaro umumiylik-xususiylilik dialektik aloqadorligi asosida bog'langan bo'lib, shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari paradigmatic qatorini belgilaydi.

Jins semali soʻz birikmalarini guruhlariga ajratish leksik birliklar qatori sintaktik birlik sanalgan soʻz birikmalarida ham mavjudligi va umumiy va oraliq shakllarda ifodalana oladigan soʻz birikmalari ishda alohida izohlandi, bu birliklarning paradigmalari hosil qilindi. Sintaktik sathda shaxs tavsifli soʻz birikmalari paradigmasidan oʻrin olishi taʼkidlandi. Ammo bu paradigma aʼzolarini toʻliq tahlilga tortish, yaʼni paradigmanning yetakchi aʼzolarini belgilash va har tomonlama tahlil qilish tilshunoslikda yechimini kutayotgan masalalardan biri sanaladi.

